



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH: O‘ZBEKISTON MILLIY HUQUQIY ASOSLARI VA XALQARO HAMKORLIK

Turg‘unboyev Abrorjon Karimjon o‘g‘li

TDYU magistratura bosqichi talabasi

Email address: Tabror054@gmail.com

Tel: 998 99 4715166

Annotatsiya:

Ushbu orqali O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha shakllangan milliy huquqiy asoslar, mavjud qonunchilik tizimi, hamda bu yo‘nalishdagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro ekologik hamkorligi, ekologik konvensiyalar va bitimlardagi ishtiroki yoritilgan. Bundan tashqari davlat organlari va mansabdor shaxslarning ekologik mas‘uliyatini kuchaytirishga oid takliflar berilgan. Tadqiqotda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda xalqaro tajriba va milliy qonunchilik o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: atrof-muhit, xalqaro hamkorlik, ekologik xavfsizlik, COP 28, COP 29.

Annotation:

This thesis explores the national legal framework of the Republic of Uzbekistan regarding environmental protection, including the existing legislation and key directions of state policy in this area. It also highlights Uzbekistan’s cooperation with international environmental organizations and participation in environmental conventions and agreements. In addition, the thesis provides well-founded proposals aimed at strengthening the environmental responsibility of state bodies and officials. The study emphasizes the importance of harmonizing international experience and national legislation as a key factor in ensuring environmental security

Keywords: environment, international cooperation, environmental security, COP 28, COP 29.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

Kirish

XXI asrda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash butun insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, ekologik muvozanatni buzilishi kabi global muammolar har bir davlatning ushbu sohadagi huquqiy-normativ bazasini takomillashtirish zaruriyatini tug'dirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi uchun atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Orol dengizi fojiasi, suv resurslarining tanqisligi, cho'llanish jarayonlari va sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'siri kabi muammolar mamlakat oldida jiddiy vazifalar qo'ymoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va xalqaro hamkorlik asosida olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Ushbu orqali O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi milliy huquqiy bazaning shakllanishi va rivojlanishi, xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi, amaliyotdagi muammolar va ularning yechim yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat rahbarining COP28 va COP29 iqlim anjumanlaridagi tashabbuslarining ahamiyati va 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish maqsad qilinadi.

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga ko'ra, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'rishi belgilab qo'yilgan¹.

Atrof-muhit muhofazasiga doir asosiy qonunimiz esa O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni mamlakatda

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 49-modda. Qonun hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

ekologik qonunchilik tizimining asosidir. Ushbu Qonun atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini, davlat va fuqarolarning majburiyatlarini belgilaydi². O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan maxsus qonunlar va me'yoriy hujjatlar:

1. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun
2. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun
3. "Suv va suv foydalanish to'g'risida"gi Qonun va boshqalar.

O'zbekiston atrof-muhit qonunchiligi asosan xalqaro standartlarga mos keladi, ammo amaliyotda qo'llash mexanizmlari zaif. Bu holat quyidagi sabablarga bog'liq:

Birinchidan, davlat nazorati tizimining noaniq tashkil etilishi;

Ikkinchidan, javobgarlik choralarining yetarli emasligi;

Uchinchidan, iqtisodiy stimullarning yo'qligi;

To'rtinchidan, fuqarolar huquqiy ongining past darajasi.

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunini yangi tahrirda qabul qilish va unga davlat javobgarligining aniq mexanizmlarini kiritish zarur bo'lmoqda. Ushbu Qonun 51-moddasini quyidagicha qism bilan to'ldirish lozim:

"Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar, ko'rilmagan choralar yoki harakatsizlik natijasida atrof-muhitga zarar yetkazilgan taqdirda, mansabdor shaxslar shaxsiy javobgarlikka tortiladi. Shaxsiy javobgarlik, zarar yetkazishning xususiyati va miqdoriga qarab, intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik shakllarida qo'llaniladi".

O'zbekiston Respublikasi so'ngi yillar davomida ekologik xavfsizlik borasida hamkorligi juda rivojlanmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning COP28 va COP29 iqlim anjumanlaridagi tashabbuslari muhim ahamiyatligi bilan ajralib turadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2023-yil dekabr oyida Dubay shahrida o'tkazilgan BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COP28) anjumanida "iqlim o'zgarishlariga qarshi samarali kurashish faqat kuchlarni birlashtirish va keng

² O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari milliy bazasi
<https://lex.uz/acts/-107115>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

xalqaro hamkorlik asosida mumkin” deb ta’kidladi.³ Ushbu tashabbuslar ichida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

1. Parij shartnomasi doirasida Iqlim o‘zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmni tezroq kelishish.
2. Global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish adolatli, shaffof va inklyuziv bo‘lishi zarur.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezolyutsiyasi asosida Orolbo‘yi hududini ekologik ofat zonasidan “innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasi”ga aylantirish. Bu yerda Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspo-xabini yaratishda yaqin hamkorlikka taklif etadi.
4. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozim. Toshkentdagi “Yashil universitet” negizidagi “Iqlim ilmiy forumi”da davlatlaringiz yetakchi olim va ekspertlarini ishtirok etishga chaqiradi.
5. BMT bilan 2024-yili O‘zbekistonda "Iqlim migratsiyasi" konferensiyasini o‘tkazish. Xalqaro mehnat tashkiloti bilan “Yashil bandlik” dasturi”ni ishlab chiqish va Modellastirish markazini tashkil etishni taklif qiladi.

2024-yil 12-noyabr kuni Boku shahrida o‘tkazilgan BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha 29-konferensiyasi (COP29)da esa quyidagicha takliflarni⁴:

1. Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etish taklif qilindi.
2. Transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish va barqaror bioxilma-xilligini saqlashda yagona yondashuvlar zarur. Orol dengizining butunlay yo‘qolishi sayyora miqyosidagi fojiga aylandi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdori.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 1-dekabrda Dubay shahrida o‘tkazilgan BMT Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/6899>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 12-noyabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP 29)dagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/7690>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

3. Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlatlar uchun O'zbekistonda Birlashgan Millatlar Tashkilotining innovatsion agrosanoat xabini yaratish tashabbusini ilgari surildi.

2025-yil O'zbekistonda "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi davlat siyosatida ekologik masalalarga berilayotgan ustuvorlikni aks ettiradi. Yil nomida belgilangan eng muhim vazifalar bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqildi.

Kutilayotgan natijalar.

2025-yil dasturi doirasida quyidagi asosiy natijalarni olish rejalashtirilgan:

- Ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish;
- Yashil texnologiyalar uchun soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish;
- Ekologik sug'urta va sertifikatlash tizimini joriy etish.

Xulosa

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy baza asosan shakllantirilgan bo'lsa-da, zamonaviy talablar va xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qator muammolar mavjuddir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro hamkorlik istiqbolda ijobiy o'zgarishlar yaratishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 51-moddasini "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar, ko'rilmagan choralar yoki harakatsizlik natijasida atrof-muhitga zarar yetkazilgan taqdirda, mansabdor shaxslar shaxsiy javobgarlikka tortililishi" haqidagi norma bilan to'ldirsak, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan atrof-muhitga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazilishining oldi olinadi.

Birinchidan, ekologik xavf-xatarlarni e'tiborsiz qoldirish holatlari kamayadi;

Ikkinchidan, byurokratik sustkashliklar uchun real javobgarlik muqarrarlari vujudga keladi.

Xalqro doirada taklif qilish mumkinki, BMT huzurida Ekologik javobgarlik bo'yicha Xalqaro fondni tashkil etish va uning moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Bu orqali esa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xususiy sektorning hissalariga asoslanib, ekologik ofatlar zararini tezkor qoplash imkonini beradi. Fond



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarga ekologik texnologiyalar va bilimlarni uzatishni moliyalashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 49-modda. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 12-noyabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi (COP 29)dagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/7690>
3. O'zbekiston Prezidenti 2023-yil 19-sentabr BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6679>
4. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida Prezident Farmoni. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7369703>
5. O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi <https://lex.uz/acts/-107115>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlar bazasi: <https://lex.uz>